

**GOSPITAL TA'LIMDA O'QITUVCHI, O'QUVCHILARDA VA OTA-  
ONALARDA SHUKRONALIK HISSINI SHAKLLANTIRISHDA  
PSIXOLOGNING O'RNI**

***Umarova Iroda Zafarovna***

*Maktabgacha va maktab ta'lifi xuzuridagi "Mexrli maktab" davlat ta'lim muassasasi  
Andijon viloyati filiali psixologi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada faqatgina o'quvchilarning xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlari va shukronalik tuyg'usini uyg'otishga qaratilgan psixogologik sifatlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Maqsad, moddiy imkoniyatlar, sabr-toqat, tug'ma qobiliyat, ekologik ko'nikmalarini singdirish jamoatchilik

## **KIRISH**

Bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor ularga bildirilayotgan ishonch kelajakka bo'lgan umidimizning nechog'lik katta ekanligining yorqin namunasidir. Ularning sifatli ta'lim olishiga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar esa buning amaldagi isboti desak yanglishmaymiz. Mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etadi. Ana shunday keng ko'lamli islohotlardan biri 2022-yilning 5-may sanasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 234-sonli “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroridir. Qarorga muvofiq bugun yurtimizda “Mehrli maktab” davlat ta'lim muassasasi tashkil etilgan bo'lib, uzoq muddatli stasionar davolanishga muhtoj bo'lgan bemor bolalarning ta'lim jarayonidan ortda qolmasliklari va o'z tengdoshlari qatori bilim olishlarini ta'minlash hamda ularning ijtimoiy moslashuviga yordam berishdir.

Demak, gospital ta’limda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim – bu ta’lim oluvchilarning shaxsiy individual layoqati, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiq etish asosida unda ma’lum bilim, ko’nikma va malakalarni hosil qilibgina emas, balki, eng asosiysi, uning shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim hisoblanadi. Gospital ta’limda shaxsga yo‘naltiirlgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bilan bir qatorda har bir o‘quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish kerak. Gospital ta’limda shunday muhitni yaratish kerak-ki, unda o‘quvchi o‘zini shaxs deb hisoblasin, o‘ziga bo‘lgan e‘tiborni his qilsin. Ta’limda muvaffaqiyat muhitini tashkil etish, bolaga o‘qitishda muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o‘z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish, o‘quvchi sinf rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda islashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishslashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizning yosh avlod xalqimizniig inqilobiy, mehnat, jangovar an’analarini o’zlashtirib, o‘ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini-g’oyaviy e’tiqod va matonatni, Vatanga muhabbatni, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni, o‘zida bor ne’matlarga nisbatan shukronalik hissini singdiribgina o‘z bobolari va otalari ishini davom ettira va ko’paytira oladi. Bu ishda ota-onalar ayniqsa muhim o’rin tutishlari kerak.

Shukronalik fazilati insonni kamolotga yetkazadi. Noshukurlik insonni jisman, ma’nан va moddiy tomondan qashshoqlashishiga, o‘zgalar oldida qadrsiz va humatsiz bo‘lishiga olib keladi. Shukronalik insonni go‘zal va ulug‘vor bo‘lishiga yordam bersa, noshukurlik uni xunuk va past insonga aylantiradi. Tasavvuf namoyandalari insonlarni ikki xil: nuriy va noriyga bo‘ladi. Nuriy inson ezgu ishlarga kamarbasta, ilohiy nurlar yog‘ilib turgan kishidir. Noriy kishi esa hasad, g‘azab, kibr olovida yonadigan, har bir bajaradigan ishini ta’ma qiladigan odamlardir. Shukronasi bor inson yuz-ko‘zidan nur yog‘ilib turadi, barakali bo‘lib, hamisha xolis xizmat qiladi. Ko‘pning duosi nuridan vujudi nurli bo‘lgani uchun ularni nuriy inson deyish mumkin. Aksincha, noshukur, zalolat va g‘aflatda qolganlar noriy odamlardir. Noshukurlik ularning jismi, qalbi va ruhini kasal qiladi. Shukronalik ruhida tarbiyalashda tasavvufning Naqshbandiya ta’limoti

o‘rnı kattadir. Bu ta’limotdagi o‘n bir rashha insonni shukronalik ruhida tarbiyalaydi. Ta’limotning birinchi rashhasi “Hush dar dam” har bir dam, ya’ni har bir nafasga shukur qilish lozimligini o‘rgatadi.Umumiy xulosa qilganda, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun yoshlarni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashimiz zarur. Shukronalik ruhida tarbiyalangan yoshlarni ijobjiy fikrlaydigan va jamiyatni hamjihat, do’stligini ta’minlaydigan ijobjiy quvvat deb hisoblash mumkin.

O’z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagи chog’idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta’sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do’stlikka, muhabbatga o’rgata oladi!

Ma’lumki, xilma- xil faoliyat sharoitida shaxsning qobiliyatları eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, shaxsni oiladan boshqa qaerda ham faoliyatning xilma- xil turlariga jalb etish mumkin. Oilaviy tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saklanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo’yilgan.

Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma’lumotlarini e’tiborga olishlari ham muhimdir, ularga ;muvofig o’sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilaning qo’shadigan hissasi turli yosh bosqichlarida turlicha bo’ladi va to’lqinsimon o’zgaradi. Dastlabki 3 yil ichida u ayniqla kuchli bo’ladi, shundan keyin oilaviy ta’sirning muayyan darajada barqarorlashuvi davri boshlanadi. Uning navbatdagi odatda maktabgacha yosh tugaydigan paytga to’g’ri keladi, shundan keyin taxminan o’smirlik davrigacha u zaiflashgandek bo’ladi. Yana ota-onalariing ta’siri ota-ona oilasidan ajralib, o’z oilasini tuzguncha ancha kuchayadi.Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning ma’lumotlari ba’zan shaxsning imkoniyatlari to’grisidagi barqaror tasavvurlarni o’zgartirib yuboradi. Masalan, ych yillik shaxslar olimlar bir necha yil muqaddam taxmin qilganlariga nisbatan ancha chuqur idrok etish qobiliyatiga ega, uch yoshli shaxs hozir faqat olti yoshli shaxslar qilgan va qilmagan narsalarni bilishi va qilishi mumkinligi kichkintoyni yurishdan oldin suzishga, ona tili bilan deyarli baravar chet tilida gapirishga o’rganish mumkinligi va

hokazolar ma'lum bo'ldi. Vaholanki, tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar ko'pincha o'zlarini tarbiyaviy ishga to'la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Otaonalarning bu xusuiyatini taniqli pedagog va psixolog K. D. Ushinskiy o'z davrida ta'kidlagan edi. «Tarbiya san'ati, — deb degan edi u, — shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi — odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rindi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilish.

Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari otaonalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q. Bu jihatdan otaonalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o'zлari, ishlari haqida kamso'zlab beradilar, o'quv bilim yurti o'quvchilar jamoasining hayoti, o'z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.

2. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qilabilmaslik ona ishga ko'milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo'ladilar.

3. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o'quv muassasasining pedagogikkuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.

4. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi — onda-sonda o'qishini tekshirish, birornojo'ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida taqiqlashlar sistemasi — ijobiy namuna asosida tarbiyalaybilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug'diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi.

6. Harakatlarning o'quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilankelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga, o'quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo'ladi va o'sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

7. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish. SHaxs katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi debo'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin.

Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinf rahbari o'z shaxsiy xususiyatlari tajribasini, o'quvchilarining oilalarida vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarni, otaonalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, o'quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, otaonalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko'rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf. tarzidagi va yakka tartibdagi ish shakllarini oqilona birga qo'shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'liga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, shukronalik hissi bilan tarbiya qilishdan iboratdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” T.: “Ma'naviyat”. 2008.
3. Ortiqov N.O., Jo'rayev A.J. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi kengashi. T.:“O'qituvchi”,1989.
4. Ochilov M. “Muallim – qalb me'mori” T.: “O'qituvchi” 2001.
5. Yo'ldoshev J.G'.O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (qo'llanma)-T.: 2000.
6. Xo'jaev N. Tarbiya nazariyasi. va boshqalar. – T.: – 2003.
7. w.w.w. ziyonet . uz
8. w.w.w. pedagog. uz